



CHO‘LPONNING “QOR QO‘YNIDA LOLA” HIKOYASI TAHLILI

Yusupova Xumora,
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207431>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning qarashlari, unga bildirilgan fikrlar hamda “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi tahlili haqida so‘z borgan. Qahramonlar xarakteri va asarda ko‘tarilgan masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ayollar tasviri, Cho‘lpon, qahramon, xarakter, jaholat.

Barchamizga ma‘lumki jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston, Turkiston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy harakat. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. Ismoil Gaspirali mazkur harakatning rahbari hisoblanadi. Keyingi yillarda Turkistonda ham o‘zlarini jadid deb atovchi yangi avlod ma‘rifatparvarlari shakllandi. Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Adurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov shular jumlasidandir. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar, mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilar o‘z asarlari orqali g‘aflatda qolgan xalqni uyg‘otishga, mustaqil bo‘lishga chorlaganlar.

Buyuk shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi Abdulhamid Cho‘lpon ham bu istilohning ishtirochisi edi. Uning siyosiy qarashlari, xalqni ma‘rifatli qilish yo‘lidagi faoliyati, jadidchilik oqimiga qo‘shgan hissasini ham yaxshi bilamiz. Bu harakatning Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori kabi faollarining da‘vatlari hayotni yangicha qiyofalarda ko‘rishga ishtiyoqmand yoshlarni o‘ziga tortgan.

Cho‘lpon bu haqda shunday deydi: “O‘shanda biz, yosh o‘zbek yozuvchilarining hammasi Fitrat ta‘sirida edik, u o‘zbek she‘r tuzilishining islohotchisi sifatida eski arabiy-forsiy shakllar va shablonlardan xoli bo‘lib, jonli, real xalq tilida yoza boshlagan edi”[6]

Cho‘lpon haqida matbuotda birinchi bo‘lib iliq fikr bildirgan olim Zarif Bashariy bo‘lgan edi. Bu odam asli Tataristondan bo‘lib, 20-yillarda O‘zbekistonda

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yashagan, o‘zbek tilida ko‘plab maqolalar yozgan, hikoyalar e‘lon qilgan, tabdillar qilgan, o‘sha davr munozaralarida faol qatnashgan. U 1923-yilning 4-may kuni “Turkiston” gazetasida Cho‘lponning birinchi to‘plami “Uyg‘onish” ga taqriz e‘lon qiladi. U taqrizning boshidayoq “Cho‘lpon o‘rtoq keyingi davrdagi o‘zbek shoirlaridan eng oldingisi va chin ma‘nosi bilan shoir deb atalishga loyiq bo‘lganidan uning she‘rlarini chin adabiyot va she‘r ko‘zi bilan ko‘rib, tekshirish va tanqid qilishga yaraydir” [4] deydi va shundan so‘ng “Cho‘lpon o‘rtoqning chin yurak va his shoiri” [4], ya‘ni hassos lirikligini aytib, bu fikrni tasdiqlovchi misollar keltiradi. Munaqqid tahlil yordamida Cho‘lpon she‘rlaridagi tasviriylkni, tuyg‘ular teranligini, so‘z qo‘llash mahoratining yuksakligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki “o‘zini xalqdan ayri holda, zamondoshlarining hayoti, ma‘naviy dunyosidan tashqarida deb tasavvur ham qilolmaydigan” bu shoir deyarli yetmish yil davomida qoralanib kelindi. Bu davr mobaynida shoir sha‘niga aytilmagan bo‘hton qolmadi; uni qoralash, tahqirlash bobida kim o‘zar musobaqalar avj oldi. Yuzlab maqolalarda, kitoblarda, ma‘ruzalarda unga “burjua shoiri”, “jadid”, “mafkurasi buzuq”, “bosmachilar kuychisi”, “millatchi”, “aksilinqilobchi”, “Oktyabr inqilobini tushunmagan ovsar”, “yoshlar ongini zaharlovchi yot unsur”, “xalq dushmani” va yana allanima balolar degan tavqi la‘nat yopishtirildi [3].

Abdulhamid Cho‘lpon ijodida ayollar tasviri o‘ziga xos va murakkab bir mavzu hisoblanadi. U ijtimoiy hayotni aks ettirishga intiladi, shu jumladan ayollarning jamiyatdagi o‘rni, huquqlari va imkoniyatlarini ham keng muhokama qiladi. Ularning achchiq qismati, hayot tarzini asarlari vositasida ochib beradi.

Cho‘lponning “Qor qo‘ynida lola” hikoyasi hajmi kichik bo‘lsada o‘sha davr ayol qizlarining taqdirini yaqqol ochib bergan asarlardan hisoblanadi. Hikoya baxtsizlik bilan boshlanadi. Sababi koptokning suvga tushib shalabbo bo‘lishi, uni maroq bilan o‘ynayotgan sho‘x qizlar uchun haqiqatdan baxtsiz hodisa edi. Qolaversa, bolalikning so‘nggi kunini yashayotgan Sharofat uchun “...to‘p o‘yinidan ham yaxshisi bormi?”. Afsuski, undan “yaxshisi” bor edi...

Qahramonimiz Sharofat oydek husnli, intiluvchan, zehnli, chaqqon, sho‘x, endigina 17 ga qadam bosgan yoshgina qiz. Qishloqdagi manaman degan azamatlarning unga ishq tushgan bir vaqtda, Samandar aka keksa eshonni qoyil qoldirish uchun o‘z qizini bir buyumdek sotib yuboradi:

qilmadilar ekan?



“— To‘g‘rimi, eshonnikidanmi, to‘g‘rimi? Eshon nega o‘zimga mazmun Endi katta odam, men sovchilarga hali qizim yosh, endi 17 ga chiqdi, dedim. Shunday deb javob bera qolaymi?”

Bu vaqt kimdir, tashqaridan bir xotin tovushi eshitildi: “Qumribush, qo‘noqlar turishdilar!” Qumribush o‘rnidan turdi, eriga bir nima degandek qaradi.

Samandarboy bir yosh qizini, bir eshonni, boyagi nazr-niyoz masalasini, eng so‘ng kimsan hazrat eshonning kuyovliklarini o‘ylab turdi-da:

— «Bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!» degil!— dedi.

Qumribush kutilmagan bu gapdan oqardi, ko‘kardi, suvratdek qotib devorga suyalib qoldi...”

Hikoya kulminatsiyasi aynan shu dialogdan boshlanadi. Qolaversa, mazkur parcha orqali Samandar, Qumribush va eshon tabiatiga xos bo‘lgan karakter xususiyatlarni ham tahlil qilsak bo‘ladi. Masalan, Samandar o‘sha davrdagi ko‘plab otalar singari obro‘-e‘tiborni, shuhrat-u boylikni farzandi kelajagidan ustun ko‘ruvchi laganbardor va kaltafahm kishi. Eshon esa nafs buzuvchi, takabbur, chirkin ishlarini dinning ortiga yashirgan qabih kimsa. Ahamiyat bersak, shu davrdagi bir qancha asarlarda go‘yoki dinga itoat etuvchi “din peshvolari” aslida islom mafkurasiga teskari bo‘lgan amallarni bajarishadi. Bu ham asli ilmsizlikdan. Ya‘ni, qalbni qabohatdan, jaholatdan uyg‘otmay turib, unga islomdek go‘zal e‘tiqodni yuqtirib bo‘lmaydi.

Yana bir personaj bu- Sharofatning onasi Qumribush. U deyarli hikoyada ishtirok etmaydi. Ya‘ni u bor bo‘lsa ham, yo‘q bo‘lsa ham illo Sharofat eshonga turmushga chiqadi. Itoatkor, tortinchoq, xatto ta‘bir joiz bo‘lsa, qo‘rqoq ayol. Sababi, o‘n gulidan bir guli ochilmagan yakkayu yagona qizining taqdiri hal qilinayotgan bir vaqtda “suvratdek qotib devorga suyalib qolish” chora emasligini Qumribush ham yaxshi bilar edi. Ammo boshqa hech narsa qilmadi, negaki, u ham tug‘ilganidan turmushga berish uchun tarbiyalangan, savodsiz, hayotda o‘z o‘rnini topmagan oqizalardan edi. Cho‘lpon ham aynan shu nuqtai nazardan chorasizlik chora emasligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

“— To‘g‘ri-ya, men qizg‘a achinaman, boyaqish kelib-kelib kimniki bo‘ldi-ya!..

— Nimasini aytasan, otasining uyi kuysun, odam emas ekan!

— Soqolini oppoq tutadek hilib, nevarasidek bir qizni aravadan olishini qara, kishi chidamas ekan. Shuni bir narsaga o‘xshatg‘um keldi-yu, o‘xshata olmadim-da!

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Shu choq bir burchakda ko‘cha poylab yotg‘on Mamat qorovul yig‘lag‘onday qilib hushtagini chalib oldi-da:

— Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog‘di!..— dedi.

Yigitlar javob bermadilar va qorong‘iliq quchog‘ig‘a kirib yo‘q bo‘ldilar...

Seni ko‘p ko‘rmasun”

“Eng katta xavf loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida “[1]-degan edilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Hikoyada ushbu mavzuga ham to‘xtab o‘tilgan. Haqiqatdan ham, bo‘layotgan voqea hodisalarga chetdan qarab turish, “och qornim tinch qulog‘im” qabilida ish tutish, juda achinarli holat. To‘g‘ri, keltirilgan parchada balki odamlar hech bo‘lmaganda o‘zaro muhokama qilishmoqda, lekin, bir pichoqqa sop bo‘la olmaydigan gap, so‘zlardan kimga nima naf? Ko‘rinib turganidek bu muammo bundan yuz yil avval ham bo‘lgan, hozir ham mavjud, ertaga ham hal bo‘lishi amrimahol...

Xulosa shuki, hikoya so‘nggida Sharofatning taqdiri qanday yakun topgani keltirilmagan bo‘lsa-da, loladek nozik, jozibali gulning qordek sovuq jismning qo‘ynida nobud bo‘lishi hech kimga sir emas. Yana shuni ham aytishimiz mumkinki, ota-onaning qiz farzandiga qiladigan eng katta yaxshiligi bu-uni o‘qitib, savodli qilish bo‘lsa, qiz bolaning o‘ziga qiladigan eng yaxshi ishi ham bilim olib, ilmi bo‘lib, hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Ma‘naviyatni yuksaltirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishi ma‘ruzasidan 2021-yil 19-yanvar.
2. Abdurahmon Sa‘diy. “Cho‘lpon” maqolasi. “Zarafshon” gazetasi 1924.
3. Ozod Sharafiddinov. “Cho‘lponni anglash”. Toshkent. “Yozuvchi” 1994.
4. Zarif Bashariy. “Turkiston” gazetasi “Uyg‘onish” ga taqriz 1923-yil 4- may.